

RAQAMLI O'QITISH PLATFORMALARI VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

Mamatg'aniyev Asadbek O'ktam o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

mamatganiyevasadbek1@gmail.com

ORCID: 0009-0001-9431-1103

UDK: 37.018.4

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli o'qitish platformalarining ta'lim jarayonidagi ahamiyati, ularning imkoniyatlari hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirishning dolzarb jihatlari hamda zamonaviy o'qituvchining raqamli kompetensiyasi masalalari ko'rib chiqiladi. Bu platformalar orqali o'qitish jarayonini interaktiv va ijodiy tashkil etishning samarali usullari taklif etilgan.*

***Kalit so'zlar.** raqamli ta'lim, o'qitish, pedagogika, masofaviy ta'lim, electron qurilmalar, infratuzilma, platforma, raqamli texnologiya*

***Аннотация.** В статье анализируется значение цифровых образовательных платформ в образовательном процессе, их возможности и влияние на деятельность преподавателей и студентов. Также рассматриваются актуальные аспекты повышения качества образования с использованием цифровых технологий и вопросы цифровой компетентности современного преподавателя. Предложены эффективные методы интерактивной и креативной организации образовательного процесса с использованием этих платформ.*

***Ключевые слова.** цифровое образование, преподавание, педагогика, дистанционное обучение, электронные устройства, инфраструктура, платформа, цифровые технологии*

***Annotation.** This article analyzes the importance of digital learning platforms in the educational process, their capabilities and impact on the activities of teachers and students. The article also considers the current aspects of improving the quality of education using digital technologies and the issues of digital competence of a modern teacher. Effective methods for organizing the educational process interactively and creatively through these platforms are proposed.*

***Keywords.** digital education, teaching, pedagogy, distance learning, electronic devices, infrastructure, platform, digital technology*

XXI asrda ta'lim tizimining raqamlashtirilishi insoniyat taraqqiyotining muhim yo'nalishiga aylandi. Raqamli o'qitish platformalari ta'lim jarayonini masofadan turib, qulay va samarali tashkil etish imkonini beradi. Bu jarayon pandemiya davrida yanada jadallashdi va hozirda ko'plab ta'lim muassasalari o'z faoliyatini raqamli shaklga o'tkazmoqda. Shu bilan birga O'zbekiston ta'lim tizimida ham raqamli pedagogika muhim ahamiyat kasb etadi. Globallashuv asrida davlatning innovatsion imkoniyatlarini shakllantirish jarayonida asosiy vazifa o'qituvchilar zimmasiga tushmoqda. Bunday muhim vazifani zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini mukammal egallagan, o'z ustida doimiy ishlaydigan, bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtiruvchi, ishiga kreativ yondashuvchi o'qituvchigina hal eta oladi. Raqamli texnologiyalar talim jarayonlarini samaradorligini oshirish mavzusi hozirgi vaqtda juda muhimdir. Raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim, onlayn darslar, interaktiv darsliklar va boshqa vositalar orqali ta'lim jarayonlarini o'rganish va o'qitish samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu mavzuda ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan va ular raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonlarining samaradorligi va ularning muhim ahamiyati haqida ma'lumotlar beradi. Raqamli texnologiyalar orqali tashkil etilgan ta'lim jarayonlari talabalarga interaktivlik, o'zlashtirish,

muvofiqlik va samaradorlikni oshirishi mumkin. Bunday usullar talabalar uchun ilgari sinflarda olmagan imkoniyatlar yaratadi va ularga o'zlashtirilgan ta'lim imkoniyati beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar talabalarni mustaqil o'rganishga imkon beradi bu esa ularning bilim darajasini ko'tarish uchun muhimdir. Raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim jarayonlari samaradorligini oshirish turli strategiya va yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Biz ushbu maqolamizda aynan shu mavzuda so'z olib boramiz. Asosiy xususiyatlardan ba'zilari quyidagilardan iborat. Raqamli ta'lim platformalari, internet orqali o'quvchilarga ta'lim berish imkoniyatini taqdim etadigan onlayn o'quv platformalardir. Bu platformalar, video darsliklar, interaktiv darslar, sinovlar va boshqa turdagi ma'lumotlar orqali o'quvchilarga ta'lim berish uchun mo'ljallangan. Ularning asosiy maqsadi, o'quvchilarning osonlik va qulaylik bilan bilim olishlari uchun yangi usullarni taqdim etishdir. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarining barchasida o'qitish to'laqonligicha joriy etilmagan. Raqamli pedagogikani joriy etishda avvalo raqamli savodxonlikni rivojlantirish zarur. Chunki raqamli o'qitishda ATK vositalaridan foydalaniladi. Raqamli pedagogika asosan vujudga kelishi bir necha omillarga borib taqaladi:

Raqamli ta'lim platformalari, masofaviy ta'limning muhim qismi sifatida ko'riladi va global o'rinda keng tarqalgan. Bu platformalar YouTube Learning, Khan Academy, Coursera, Udemiy va boshqalardir. Raqamli ta'lim platformalari yordamida istalgan mavzuda o'rganish uchun bir necha foydali kurslardan foydalanishingiz mumkin. Masofaviy ta'lim va gibrid modellar, o'quv jarayonini internet yoki boshqa tekshiruvlar orqali olib borish uchun mo'ljallangan. Masofaviy ta'lim, o'quvchilarning onlayn darslar, video darsliklar, interaktiv sinovlar va boshqa elektron ta'lim vositalari orqali o'zlashtiriladi. Interaktiv kontent va multimediya, o'quvchilarga ta'lim berishda o'zgaruvchan muhim ahamiyatga ega bo'lgan vositalardir. Bu turli-xil ta'lim vositalari, o'quvchilarga ma'lumotlarni oson va qiziqarli shaklda

bilishlari uchun mo'ljallangan. Interaktiv kontent, o'quvchilarning ma'lumotlarni olish va tushuntirish jarayonlarini osonlashtiradi. Bu turdagi kontentlar, sinovlar, interaktiv darsliklar, animatsiyalar, virtual laboratoriyalar va boshqa interaktiv imkoniyatlarni qamrab oladi. O'quvchilar bu turdagi kontent orqali ma'lumotlarni oson va qiziqarli shaklda olishlari mumkin. Multimediya esa, matnlar, tasvirli materiallar, audio va video darsliklar, animatsiyalar va boshqa ko'rinishdagi media vositalari orqali ma'lumotlarni ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Bu turdagi kontentlar o'quvchilarga bir qatorda yetarli bilimni eng muhim ko'rinishda ko'rsatib berish uchun ishlatiladi. Interaktiv kontent va multimediya ta'lim jarayonida foydali bo'ladi, chunki ular o'quvchilarning diqqatini jalb qilishda yordam beradi va ma'lumotlarni tushuntirishda qulaylik yaratadi. Ular ta'limni yanada qiziqarli va samarali qilish uchun muhim jihozlardir. Ta'lim kontekstida moslashuvchanlik o'quv jarayonini o'quvchilarning individual ehtiyojlari va afzalliklariga moslashtirish qobiliyatini anglatadi. Bu an'anaviy ta'limning yagona yondashuvidan tashqariga chiqadi va talabalar qanday, nimani, qachon va qayerda o'rganishning turli usullarini o'z ichiga oladi. Onlayn ta'lim jarayonida foydalanadigan bir nechta baxolash vositalari mavjud. Bu vositalar o'quvchilar va o'qituvchilar uchun bilimni oshirish, darslarni oson o'rganish, hamda dastlabki bilimlarni baholash imkoniyatlarini ta'minlash maqsadida ishlatiladi. Quyidagi onlayn baxolash vositalari misollarini keltirib o'tish mumkin: Zoom, Microsoft Teams, Google Meet va boshqa onlayn muloqot vositalari: Bu platformalar video-konferensiyalar, o'quv darslari va interaktiv muhokama uchun xizmat qiladi. O'qituvchilar va o'quvchilar darslar, ma'ruzalar va ish olib boorish uchun ulardan foydalanishadi.

➤ Google Classroom va Microsoft Teams: Bu onlayn platformalar o'qituvchilar uchun darslar tayyorlash, vazifalarni yuborish, o'quvchilarning

ishlarini baholash, ma'lumot almashish va qo'shimcha materiallarni joylashtirish uchun mo'ljallangan.

➤ Khan Academy: Bu bepul onlayn ta'lim platformasi, matematika, fizika, kimyo, tarix va boshqa fanlarda darslar beradi. O'quvchilar o'zlarini belgilangan fanlarda o'rganishlari mumkin.

➤ Coursera va edX: Bu platformalar oliy ta'lim kurslarini taklif qiladi.

Universitetlar va kasb-hunar o'quv markazlari tomonidan taklif qilingan kurslar orqali o'quvchilar o'zlarini o'zlariga qat'iy fanlarda rivojlanishga imkoniyat yaratadi **Xulosaa va Takliflar**. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimining raqamlashtirilishi insoniyat taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'qitish jarayonida raqamli platformalardan foydalanish — bu faqat texnologik yangilik emas, balki ta'limni boshqarish, nazorat qilish va samaradorlikni oshirishning strategik zaruriyatidir. Tadqiqot davomida tahlil qilingan Google Classroom, Moodle, Edmodo, Coursera, Microsoft Teams, Zoom, Khan Academy kabi xalqaro platformalar shuni ko'rsatadiki, ular ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarni o'qishga jalb etish va o'qituvchining mehnatini yengillashtirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu tizimlar yordamida o'quvchilar mustaqil ravishda bilim olishi, o'z natijalarini kuzatib borishi, o'qituvchi esa har bir talabaning o'quv faoliyatini tahlil qilishi mumkin bo'ladi. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda raqamli ta'limni rivojlantirish yo'lida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Ziyonet, MyEdu, Eduon, EduMarket kabi milliy platformalarning joriy etilishi ta'limni modernizatsiya qilish, zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish, shuningdek, masofaviy ta'limni kengaytirish imkonini bermoqda. Bu esa mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi maqsadlariga to'liq mos keladi. Raqamli o'qitish platformalari ta'lim jarayonini interaktiv, shaffof va individual yondashuvga asoslangan tizimga aylantiradi. Ular

o'quvchilarni mustaqil o'rganishga undaydi. Bilimlarni vizual, amaliy va tahliliy yo'nalishda mustahkamlaydi;

dars sifatini oshiradi va vaqt tejallishini ta'minlaydi;

ta'lim jarayonini uzluksiz va ochiq holatga keltiradi.

Biroq, raqamli platformalarni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud: ayrim hududlarda internet tezligining pastligi, texnik vositalar tanqisligi va o'qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi bunga misol bo'la oladi. Shu bois ta'lim muassasalarida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, o'qituvchilarni zamonaviy platformalardan foydalanishga o'rgatish, internet infratuzilmasini yaxshilash zarurdir.

Umuman olganda, raqamli o'qitish platformalari zamonaviy ta'limning asosiy tayanchi bo'lib, ular ta'lim jarayonini global standartlarga yaqinlashtiradi, shaxsning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi hamda ta'limni yangi bosqichga olib chiqadi. Shu bois raqamli pedagogika va raqamli o'qitish platformalarini yanada takomillashtirish — bugungi kunda har bir o'qituvchi, talaba va ta'lim tashkilotining ustuvor vazifasiga aylanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-iyuldagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi to'g'risidagi qarori.
2. Bates, A. W. (2019). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. BCcampus.
3. UNESCO (2020). "Education in a Post-COVID World: Nine Ideas for Public Action". UNESCO Publishing.
4. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida Moodle, Google Classroom va Microsoft Teams kabi raqamli platformalarni joriy etish bo'yicha tahliliy hisobotlar.
5. Karimova D. "Raqamli pedagogika va ta'limda innovatsion texnologiyalar." – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2022.

6. Yo'ldoshev J.G., Usmonova M. "Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish." – Toshkent: TDPU, 2021.
7. Qodirova G. "Masofaviy ta'limning afzalliklari va kamchiliklari." – "Pedagogika va psixologiya" jurnali, 2023, №4.
8. Google for Education. "Getting started with Google Classroom." (<https://edu.google.com/classroom>)
9. Al-Samarraie, H., Teng, B. K., Alzahrani, A. I., & Alalwan, N. (2018). E-learning continuance satisfaction in higher education: A unified perspective from instructors and students. *Studies in Higher Education*, 43(11), 2003–2019.